

MA'NAVIYATNING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Kenjayeva Sevinch Shamsiddin qizi

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 3-bosqich
talabasi*

Annotasiya: *Ushbu maqolada ma'naviyatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati, ma'naviyat tushunchasiga doir turli xil ta'riflar hamda O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi ma'naviyatga bergan ta'rifi, shuningdek, muhtaram birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asaridagi umuminsoniy g'oyalar hamda ularning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati, ma'naviyat tushunchasi va mazmun-mohiyati haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *ma'naviyat, ma'rifat, ta'lim-tarbiya, yosh avlod, umuminsoniy qadriyat.*

Bugungi kunda «ma'naviyat» tushunchasining mohiyati, predmeti, tushunchalari va rivojlanish qonuniyatlariga bag'ishlanib respublikamiz ziyolilari tomonidan qizg'in munozaralar olib borilmoqda. Bunga asosiy sabab ma'naviyatning ko'p qirrali tushuncha ekanligidir. Ma'naviyat inson faoliyatining barcha qirralarini, uning yaqqol ko'zga tashlanuvchi zoxiriy va yashirin, ichki ruhiy – botiniy tomonlarini ham qamrab olgandir. Hozirgi kunda ham ushbu tushunchani talqin etish borasida munozaralar davom etmoqda va matbuotda ham ushbu mavzuga bag'ishlab ko'plab maqola va mulohazalar e'lon qilinmoqda, kitoblar chop etilmoqda.

“Ma'naviyat” tushunchasiga ilmiy, publitsistik, falsafiy, adabiy, axloqiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko'plab ta'riflarni keltirishimiz mumkin. Umuman, o'zida juda chuqur va keng qamrovli ma'no-mazmunni mujassam etgan bu tushunchaga har qaysi muallif o'zining falsafiy yondashuvi, siyosiy qarashlari va e'tiqodi, ongu tafakkuridan kelib chiqqan holda turlicha ta'rif va tavsiflar berib kelayotganliklarini ko'rishimiz mumkin. Ma'naviyat - bu shaxsning va jamiyatning insoniylashish darajasi, ya'ni har bir narsa va hodisalarga baho berishda va ta'sir ko'rsatishda insoniylik me'yorlaridan kelib chiqib yondashishdir.

Aslida ma'naviyat – insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan eng baquvvat ma'naviy-ruhiy omil hisoblanadi. Inson – tabiatning, barcha mavjudotning gultoji deyilganda uning ushbu xislati, ya'ni yuksak ma'naviyat egasi bo'la olish imkoniyati nazarda tutiladi. Bu kabi imkoniyatlar esa boshqa mavjudotlarda mavjud emas. Ma'naviyat bu shunday murakkab ko'p qirrali sehrli tilsimki, uni tugal yechishga bashar qudrati yetmaydi. Shunday ekan, «ma'naviyat» tushunchasiga bir yo'la to'liq va mukammal ta'rif berish murakkab hisoblanadi. Ushbu ko'p qirrali va murakkab tushuncha bo'lmish ma'naviyatga ta'rif berishda muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Karimovning nazariy qarashlariga, umuminsoniy qadriyatlarimizni, tarixiy va madaniy-ma'naviy merosimizni tiklash borasidagi amaliy faoliyatlariga tayanishimiz, uni o'zimiz uchun dasturulamal qilib olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi menimcha.

Muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Karimov o'zining „Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida ma'naviyatga quyidagicha ta'rif beradilar: „ Ma'naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir." Ma'naviyat haqida so'z borar ekan uni yosh avlod qalbiga singdirish mashaqqatli va shuningdek doimiy faoliyat ekani, uni tizimli ravishda tashkil etish esa, maqsadga erishishning birdan-bir ustuvor yo'li ekani uqtiriladi. Shu sababli ham asarda ta'lim-tarbiya sohasi, matbuot, televedeniye, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va haykaltaroshlik san'atigacha, ya'ni inson qalbi va tafakkuriga ta'sir o'tkazadigan barcha sohalardagi faoliyatimizni xalqning ma'naviy ehtiyoji, zamon talablariga mos ravishda kuchaytirish zarurligi yana bir bor ta'kidlanadi.

„Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi, ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga soslangan kuchli ma'naviyat", deya ta'kidlaydi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Barchamizga ma'lumki, ma'naviyat tushunchasi bilan bir qatorda ma'rifat tushunchasi ham inson va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga egadir. Ma'naviyat va ma'rifat davlat ichki hayotidagi bir butunlikni, odamlar ruhiyatidagi ko'tarinkilik va kelajakka ishonchni, aql-zakovat yuksakligini, o'z faoliyatida tinchlikni, millatlararo hamjihatlikni barqaror rivojlantirish yo'lini aniq belgilashdagi o'z fuqarolarning orzu-umidlarini, manfaatlarini ifoda eta bilish, uni buyuk kelajak sari harakatga yo'naltirish va unga rahbarlik qilish salohiyati hisoblanadi. Ma'naviyat va ma'rifat mamlakatda adolatni qaror toptirish, insonlarni qonunlarning ijodkori va itoatkori darajasiga ko'taradi. Qonunlar davlat, millat va shaxsning har qanday harakatining aniq me'yori darajasiga aylangan mamlakatda demokratik ruhdagi adolatli qadriyatlar shakllanishi mumkin bo'ladi.

Ma'naviyatning hayotimizdagi o'rni va ahamiyati haqidagi fikr-mulohazalarimizga yakun yasar ekanmiz, avvalambor, shuni chuqur anglab olishimiz kerakki, ma'naviy yuksalishga erishish - bu bir yil yoki besh yilda erishiladigan ish emas. Har bir xalq va millat o'z ma'naviyatini uzoq yillar davomida shakllantirib yanada rivojlantirib boradi. Shunday ekan, yoshlarning ma'naviy olamini asrash va mustahkamlash, boyitish, yosh avlod qalbi va ongini turli zararli g'oyalar ta'siridan saqlash va himoya qilishga alohida ahamiyat qaratmog'imiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqidan.

2. O'zbekiston Respublikasining muhtaram birinchi prezidenti Islom Karimovning „Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asari.

3. „BIRINCHI PREZIDENTIMIZ I. A. KARIMOVNING "YUKSAK MA'NAVIYAT - YENGILMAS KUCH" ASARIDA ILGARI SURILGAN G'OYALARNING YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLALNTIRISHDAGI AHAMIYATI", Saidov Me'roj Salimovich.

4. arxiv.uz.